



2018 yil yanvar-dekabr oylarida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **12 832,5** mlrd.so`mni, osish **7,5%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur`ati – **3,2 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **35,6%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **35,8%**
- Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalarini soni-**6268** birlikni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'ycha 2018 yilning yanvar-dekabr oyida viloyat korxonalarini tomonidan 12832,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,8 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 17,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 26,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 6,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.



Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.



Tog`-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 17,2 % ga, ko`mir qazib olish sanoati sohasida - 2,7 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,8 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12176,2 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,9 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining hajmi 6,2 mlrd.so`mni, (o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shish sur`ati -102,1%), o`rta yuqori texnologiyali – 1495,3 mlrd.so`mni, (105,7%), o`rta quyi texnologiyali – 4303,8 mlrd.so`mni, (114,1%) va quyi texnologiyali – 6370,9 mlrd.so`mni, (102,9%) tashkil etdi.


Yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi- 6,2 mlrd.so`m, o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shish sur`ati - 102,1%



O`rta yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 1495,3 mlrd.so`m, o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shish sur`ati - 105,7%



O`rta quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 4303,8 mlrd.so`m, o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shish sur`ati - 114,1%



Quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 6370,9 mlrd.so`m, o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shish sur`ati - 102,9%









O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ichimliklar ishlab chiqarish 6,1 % ga, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 7,2 % ga, terini qayta ishlash 15,7 % ga, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 12,4 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 9,8 % ga, mebel ishlab chiqarish 18,2 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 69,6 % ga, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish 15,5 % ga oshganligini va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.



Yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, foizda
16,4	O'simlik yog'I (tozalangan), ming t.	21,3	130,3
66,8	Paxta tolasi, ming t.	71,1	106,4



2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O`shish sur`ati, foizda
	Avtomobil benzini, ming t.		
310,2		436,9	140,8
	Dizel yoqilg`isi, ming t.		
340,9		473,5	138,9
	Amoniy nitrat, ming t. azot		
122,8		130,9	106,6
	Superfosfat ming t. P2O5		
14,1		17,4	123,1
	Portlandsement, ming t.		
1011,1		946,1	93,6
	Temir beton mahsulotlari, ming t.		
32,0		37,3	116,7

Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 549,2 mlrd. so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,3 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,0 % ga oshganligi kuzatildi.



Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 75,2 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga oshganligi kuzatildi.



2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 4568,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,2 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 35,6 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 34,0 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 14,7% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 7,5% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,1% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 12,5% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,5% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,7% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,3% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,6% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,5% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,9% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,9% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,1% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini), So`x, Furqat tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% dan kam ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining ulushi, foizda




2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari va o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 928,7 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 772,3 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 193,9 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 428,9 mlrd.so`m, Toshloq tumani 176,6 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 148,0 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 190,6 mlrd.so`m, Quva tumani 273,8 mlrd.so`m, Buvayda tumani 105,6 mlrd.so`m, Beshariq tumani 208,1 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 193,7 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 172,4 mlrd.so`m, Farg`ona tumani 136,1 mlrd.so`m, Rishton tumani 189,8 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 86,5 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 108,9 mlrd.so`m, So`x tumani 56,8 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 127,1 mlrd.so`m, Furqat tumani 70,4 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.




Farg`ona viloyatining 2018 yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2018 yil yanvar-dekabr sanoat ishlab chiqarilishi		2018 yil yanvar-dekabr aholi jon boshiga	2018 yil yanvar-dekabr xalq iste`mol tovarlari		2018 yil yanvar-dekabr aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	o`shish, %	ming.so`m	mlrd.so`m	o`shish, %	ming.so`m
1	Oltiariq t.	204,0	108,8	995,5	172,4	104,3	841,2
2	Qo`shtepa t.	135,9	106,5	739,6	108,9	103,2	592,4
3	Bog`dod t.	287,9	106,8	1385,5	193,7	106,5	932,1
4	Buvayda t.	275,2	107,3	1249,3	105,6	106,7	479,5
5	Beshariq t.	255,7	109,5	1155,8	208,1	105,3	940,8
6	Quva t.	419,3	105,1	1674,4	273,8	106,6	1093,5
7	Uchko`prik t.	240,0	107,9	1086,5	127,1	103,8	575,2
8	Rishton t.	244,0	107,8	1246,9	189,8	102,4	969,9
9	So`x t.	74,6	105,0	987,8	56,8	103,2	752,0
10	Toshloq t.	1604,4	115,2	8215,0	176,6	105,3	904,1
11	O`zbekiston t.	343,3	106,2	1485,1	190,6	103,9	824,4
12	Farg`ona t.	188,7	109,3	914,1	136,1	103,1	659,3
13	Dang`ara t.	575,7	118,4	3428,9	148,0	105,3	881,3
14	Furqat t.	113,5	109,1	989,3	70,4	102,9	614,0
15	Yozyovon t.	120,4	107,6	1126,7	86,5	102,5	809,6
16	Farg`ona sh.	4367,5	120,7	15537,0	928,7	102,5	3303,7
17	Qo`qon sh.	1890,4	108,4	7650,4	772,3	108,3	3125,5
18	Quvasoy sh.	962,9	104,2	10592,8	193,9	103,3	2133,3
19	Marg`ilon sh.	529,1	119,1	2303,5	428,9	105,6	1867,0
Viloyat bo`yicha		12 832,5	107,5	3 514,1	4 568,1	103,2	1 250,9

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 35,8 % tashkil etmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 6268 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1203 tasi Qo`qon shahri, 823 tasi Marg`ilon shahri, 799 tasi Farg`ona shahri, 447 tasi Uchko`prik tumani, 391 tasi O`zbekiston tumani, 330 tasi Dang`ara tumani, 295 tasi Buvayda tumani, 240 tasi Toshloq tumani, 230 tasi Quva tumani, 198 tasi Bog`dod tumani, 204 tasi Oltiariq tumani, 173 tasi Qo`shtepa tumani, 169 tasi Rishton tumani, 156 tasi Farg`ona tumani, 152 tasi Quvasoy shahri, 120 tasi Yozyovon tumani, 120 tasi Furqat tumani, 112 tasi Beshariq tumani, 106 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 1156 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 174 tasi Qo`qon shahri, 110 tasi Marg`ilon shahri, 135 tasi Farg`ona shahri, 90 tasi Uchko`prik tumani, 74 tasi O`zbekiston tumani, 40 tasi Dang`ara tumani, 81 tasi Buvayda tumani, 45 tasi Toshloq tumani, 52 tasi Quva tumani, 38 tasi Bog`dod tumani, 62 tasi Oltiariq tumani, 28 tasi Qo`shtepa tumani, 40 tasi Rishton tumani, 35 tasi Farg`ona tumani, 30 tasi Quvasoy shahri, 19 tasi Yozyovon tumani, 31 tasi Furqat tumani, 43 tasi Beshariq tumani, 29 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-dekabr oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

F.Yakubov
(0371) 230-87-19